



## CHET TILLARNI MASOFAVIY O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Kutlimuratova Altingul Paraxatovna

*O'zbekiston Respublika IIV 1 sonli Toshkent akademik litsey*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada Chet tillarni masofaviy o'qitishda interfaol usullardan foydalanish qulayliklari haqida ba'von etilgan.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim, chet tillar, axborot, texnologiya

Mamlakatimiz ta'lim tizimida sezilarni o'zgarishlar ro'y berayotganligi kun sayin yaqqol ko'rinib bormoqda. Turli ta'lim shakllari qatori ayniqsa, masofadan o'qitish keng qo'llanilayotganligi ham quvonchli hol. Ushbu ta'limning ko'plab afzallik tamonlari borligi ko'pchilikka ayon. Barcha oliy o'quv yurtlarida masofadan o'qitish texnika va texnologiyasini amalga oshirish borasida qator ishlar olib borilmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi masofadan o'qitishni tashkil etishga yangicha yondashuvni taqozo etadi. Masofadan o'qitishni hozirgi zamon modellarining asosida kommunikatsiya va tarmoq texnologiyalari yotadi. Ushbu texnologiyalar axborotdan foydalanuvchilarga keng qamrovli yo'l ochib berish bilan birga ularni muhofaza etish muammosini keltirib chiqaradi. Masofadan o'qitishda o'qituvchi bilan tinglovchining orasida to'gridan - to'g'ri muloqatning yo'qligi ham ba'zi muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, muammoli o'qitish jarayonini tashkil etishda ma'lum qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Tinglovchini yetuk mutaxassis qilib tayyorlashda muammoli o'qitishni tashkil etish muloqotni telekonferensiya orqali amalga oshirish mumkin. Ammo, bu bilan muammoni hal etish uchun qo'shimcha o'quv materiallarini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Bular qatorida turli darajadagi muammoli topshiriqlar, muammoli vaziyat hosil qiluvchi ko'rsatmalar va hakoza bo'lishi maqsadga muvofiq.

Ta'lim jarayonida yuqori malakali, fan asoslarini puxta egallagan, har tamonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlash asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Shuning uchun hozirgi zamon talablariga muvofiq xorijiy tillarni o'rganishda zamonaviy axborot texnologiya vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chet tili darslarida zamonaviy o'quv - texnik vositalari, lingafon xonalari, multimedia, maxsus dasturlashtirilgan mavzular, ko'p tilli elektron lug'atlardan bevosita foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Chet tillarini o'rgatishda masofaviy ta'lim usullaridan, matbuot, telekommunikatsiya va internet materiallaridan foydalanish o'quvchi - talabalarning faqat chet tillarini o'rganibgina qolmay, balki intellektual darajasini oshirish uchun axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Chet tilini o'qitishda eng samarali yondashuvlar qatorida axborot - kommunikatsiya texnologiyalari vositasida, masofaviy ta'limda til o'rgatish metodikalarini ko'rsatish mumkin. Komyutar texnologiyalari, ayniqsa, internetdan foydalanib til o'rganishda juda keng imkoniyatlar mavjud. Ular quyidagilarga namoyon bo'ladi:



1) chet tilida og'zaki munosabatlar bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlari va malakalaridan amaliyotda faol foydalanib, olgan til materiallaridan faqat o'zining nutqida emas, balki internet orqali tanishgan suhbatdoshi nutqini tushinishda ham foydalanishda o'rganish;

2) o'zlashtirgan nutqiy bilimlarini munosabatning o'zgaruvchan vaziyatlariga ko'chirish moslashuvchan ko'nikmasini shakllantirish;

3) norasmiy muloqat shaklida amalga oshiriladigan suhbatni uyushtirishga, so'zlashishni o'rganishga nisbatan kuchli, darhol yuzaga keladigan motivatsiyani va haqiqatga yaqin munosabat motivatsiyasini yaratish;

4) psixologik to'sqinlarni yengish, xususan, chet tilida so'zlashishdan va xatoga yo'l qo'yishdan cho'chish, to'sig'ini hamda ichki va tashqi tortinish hamda uyulish hissini yo'qotish;

5) ta'lim sifatining yuqori darajaga ko'tarilishi va darhol natijaliligi; mashg'ulotlar ikkinchi mashqidayoq, foydalanuvchilar asosiy o'quv matnida berilgan nutqiy qolipda o'rganayotgan chet tilida so'zlasha boshlaydilar; matn ta'sir ko'rsatish suggestiv vositalaridan (shu jumladan, xotiraga kiritish) foydalanib, mashg'ulotlar birinchi mashqidayoq etiborga olinadi;

6) ko'p sonly nutqiy, yuksak va grammatik birliklarni taqdim etish va o'zlashtirish; bir taqdim etishda 150 – 200 yangi so'zlar, 30 – 50 nutqiy namunalar va bir nechta odatiy nutqiy hodisalar kiritiladi va o'zlashtiriladi.

Internet materiallarida so'zlashish ko'nikmalarini amalga oshirilishi sharti sifatida so'z boyligiga, til materiallari hajmiga unchalik katta talablar qo'yilmaydi. Biroq so'zlashish muloqot jarayonida shaxs sifatida to'laqonli ishtirik etish uchun foydalanuvchi egallab olishi kerak bo'lgan so'z va umuman, til materiallari hajmi zarur minimumini belgilaydi.

Masofadan o'qitish kursining maqsadi eng umumiy ko'rinishda birinchi navbatda, o'rganilayotgan tilda muloqat og'zaki shakliga tinglash va gapirishga o'rgatish bilan belgilanadi. Bundan tashqari, kurs uzaytirilishi muloqat yozma shakllariga jiddiy e'tibor qaratish imkonini beradi. Yozma muloqat nutqiy faoliyatning o'qish va yozish (yozma nutq) kabi turlarini o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Masofadan o'qitish kursida ta'lim maqsadlarini kengaytirish ilgari egallagan nutqiy malakalarini faollashtirishni, kommunikativ malakani yanada yuqori darajasini shakllantirish hamda foydalanuvchilarning Grammatik bilimlarini yanada chuqurroq tizimlashtirishni ko'zda tutadi. Chet tillarini masofaviy o'qitishda interfaol ta'lim metodini tanlash bu ayni maqsadga muvofiq ish. Chunki interfaol ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirishlarini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon qilish va ifodalash imkoniyati, maruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim – tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Ana shularni inobatga olgan holda shuni aytishimiz mumkinki. Interfaol metod chet tillarini masofaviy o'qitish jarayonida ko'plab ijobiy natijalarga olib keladi.



ADABIYOTLAR:

1. Xo'jayev N.X., Xodiyev B.Yu., Baubekova G.D., Tilabova N.T. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Fan, 2002.B-38.
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.edu.com](http://www.edu.com)